

SOTSIOLINGVISTIKA VA UNING INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'RGATISHDAGI ROLI

Aliyeva Shahlo Avazovna, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
shahloaliyeva1999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola biz sotsiolingvistika fanining chet el va o'zbek olimlari talqinida o'rganilishi, fanning kelib chiqishi, obyekti, predmeti va xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va qo'llanishi haqida fikr yuritilgan. Ta'lim jarayonida turli interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyani shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Hamda, bugungi kundagi yurtimizdagi ingliz tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor o'rganildi va tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, tilshunoslik, sotsiologiya, jamiyat, til, fan, ijtimoiy kelib chiqish, nutq, madaniyat.

СОЦИОЛИНГВИСТИКА И ЕЕ РОЛЬ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ЯЗЫКУ

Алиева Шахло Авазовна, преподаватель Бухарского государственного педагогического института, shahloaliyeva1999@gmail.com

Аннотация: В данной статье содержатся сведения об изучении науки социолингвистики в интерпретации зарубежных и узбекских ученых, происхождении, объекте, предмете и особенностях науки. Также сегодня обсуждалась важность и использование педагогических технологий при обучении иностранным языкам. Были даны рекомендации по формированию компетенции, которой должен обладать преподаватель при использовании различных интерактивных методов в ходе образовательного процесса. Также изучено и проанализировано внимание, уделяемое изучению английского языка в нашей стране.

Ключевые слова: социолингвистика, лингвистика, социология, общество, язык, наука, социальное происхождение, речь, культура.

SOCIOLINGUISTICS AND ITS ROLE IN TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE

Aliyeva Shahlo Avazovna, teacher of the Bukhara State Pedagogical Institute,
shahloaliyeva1999@gmail.com

Abstract: This article contains information about the study of the science of sociolinguistics in the interpretation of foreign and Uzbek scientists, the origin, object, subject and characteristics of the science. Also, the importance and use of pedagogical technologies in teaching foreign languages was discussed today. Recommendations were given on the formation of the competence that the teacher should have in the use of various interactive methods during the educational process. Also, the attention paid to learning English in our country today was studied and analyzed.

Key words: sociolinguistics, linguistics, sociology, society, language, science, social origin, speech, culture.

Kirish.

Respublikamizda jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuvga yo'naltirilgan tizim yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori tasdiqlandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir, deb alohida e'tibor berilgan va ta'kidlangan.

Sotsiolingvistika lotincha — jamiyat va lingvistika — tilshunoslik, sotsiologiya ya'ni jamiyatshunoslik, ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy nazariy sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammolarning ayrimlari „til va jamiyat“ umumiy tilshunoslik doirasida ham o'rganiladi. Sotsiolingvistikaning fanlararo maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuida namoyon bo'ladi. O'tgan asrning 70— 80 yillaridagi ayrim sotsiolingvistik izlanishlar bir tomonlama — o'sha vaqtdagi til siyosati nuqtai nazari va talablari asosida olib borilgan. Sotsiolingvistikadagi me'yoriylik mezoni deyilganda tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashtiriluvchi tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarining yaratilishi me'yorlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Me'yorlashtirilgan til muayyan jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy-adabiy til hisoblanadi. Hududiylik tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liqdir. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o'rtasidagi farqlar uchun asos bo'ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo'lishi hududning farq qilishidan qat'i nazar, aloqa munosabat vositasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek va tojik tillarida har bir tilning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo'lgan o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o'rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq farqlar kuzatiladi. Ijtimoiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tillarni bir qancha guruhlash mumkin.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish TESL yoki boshqa tillarda so'zlashuvchilarga ingliz tilini o'rgatish TESOL birinchi tili ingliz tili bo'lmagan o'rganuvchilarga ingliz tilini o'rgatish uchun atamalar hisoblanadi. TESL, TEFL va TESOL atamalari sinfning joylashuvi va o'quvchilar soniga qarab farqlanadi. TEFL ingliz tili asosiy til bo'lmagan mamlakatlarda mavjud ingliz tili dasturlaridan biri hisoblanadi. TEFL dasturlari til maktabida yoki o'qituvchi bilan alohida o'qitilishi mumkin bo'ladi. Ba'zi ish o'rinlari uchun minimal TEFL talabi 100 soatlik kursni tashkil qiladi, shunga qaramasdan 120 soatlik kurs qat'iy tavsiya etiladi, chunki u ko'pincha yuqori maoshli o'qituvchi lavozimlarini egallash imkonini beradi va ko'plab avfzalliklari bor. TESL va TESOL ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda uchraydigan ingliz tili dasturlarini ham o'z ichiga oladi. Ko'pincha, bu kabi dasturlar chet elga ko'chib kelgan, vaqtinchalik yoki doimiy bo'lmagan maktab yoki ish uchun

yoki oilalari uyda boshqa tilda gaplashadigan aholiga xizmat qiladi. TESOL - bu TEFL va TESL dasturlarini o'z ichiga olgan katta atama hisoblanadi, ingliz tilini o'qitish sohasida keng qabul qilingan atamalardan biri hisoblanadi. TEFL o'qituvchilari ingliz tilida so'zlashuvchi yoki ona tilisi ingliz tili bo'lmagan o'qituvchilar bo'lishi mumkin. Bu dasturlar sotsiolingvistika qoidlari asosida tizimlashtirilgan.

Tadqiqot obyekti

Sotsiolingvistikaning obyektini belgilashda tilshunoslarni ikki guruhga ajratish mumkin. Tilshunoslarning bir guruhi butun tilga tegishli bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarini o'rganishadi. Biroq nutq so'zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga, uning umumiy xususiyatlariga munosabat bildirishmaydi. Boshqa bir guruh tilshunoslar esa turli tillarning individual variantlilikiga va mikrojarayonlar shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqotiga e'tibor qaratishadi. Biz o'z tadqiqotimizni shu ikkinchi guruh doirasida olib bordik.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga ta'sirini o'rganadigan fanlardan biridir. Ikki yoki uch til amal qilayotgan jamiyatlarda sotsiolingvist quyidagi savollarga javob olishi uchun bir necha til funksiyalari mexanizmini ularning o'zaro ta'sirida tadqiq qilishi darkor. Ular ijtimoiy hayotning qaysi sohalarida qo'llaniladi? Mavqeyi va funksiyalariga ko'ra ular orasidagi o'zaro munosabat qanday bo'ladi? Qaysi til "hukmronlik qiladi", ya'ni qaysi til davlat tili yoki asosiy muloqot vositasi sifatida rasman qabul qilingan va qaysi tillar so'zlashuv tili hisoblanadi? Ikki tillilik qanday sharoitlarda va qaysi shakllarda yuzaga keladi? Bunga o'xshash savollarga javob berish sotsiolingvistikaning salohiyatiga kiradi¹.

Demak, sotsiolingvistikaning obyekti til yoki tillarning ijtimoiy faoliyatidir. Til muayyan ijtimoiy strukturaga ega bo'lgan jamiyatda faoliyat ko'rsatadi, shunga ko'ra, sotsiolingvistika tilni ijtimoiy kontekstda o'rganadigan fan deyish mumkin bo'ladi.

Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasining predmeti, asosan, turli qatlamlar va sinflarning til qo'llashini o'rganish bilan cheklangandir. Binobarin, "til to'siqlari", "yoyiq va yig'iq kod", "kompensatsiyali ta'lim" kabi masalalar keng tadqiq etilgan. Mazkur muammolar sotsiolingvistik xususiyatga ega bo'lsa-da, hodisalarning asl mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikaning predmetini qisqacha "inson va jamiyat", deb belgilash mumkin bo'ladi.

Sotsiolingvistika" atamasini birinchi marta 1952 yilda amerikalik jamiyatshunos German Karri qo'llagan edi. Biroq, bu tilning ijtimoiy tabiati haqidagi fan 1950-yillarning boshlarida paydo bo'lgan degani emas. Sotsiolingvistikaning tarixi yana ham uzoqqa borib taqaladi. XX asrning birinchi yarmidagi taniqli rus olimlari I. A. Boduen de Kurtene, E. D. Polivanov, L. P. Yakubinskiy, V. M. Jirmunskiy, B. A. Larin, A. M. Selischev, G. O. Vinokur, fransuz olimlari F. Bruno, A. Meye, P. Lafarg, M. Koen, shveytsariyalik olimlar Sh. Balli va A. Seshe, belgiyalik J. Vandries, chexoslovak B. Gavranek, A. Matesius va boshqalarga hozirgi sotsiolingvistika borasida bir qator g'oyalar tegishli hisoblanadi.

¹ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 9.

Tilshunoslikda o'rganilayotgan davrda sotsiologiya turli mamlakatlardagi olimlarning sotsiolingvistika haqida bergan ta'riflari, bizningcha, ko'pchilikning diqqatiga sazovordir. Jumladan, chet el olimlaridan biri Devid Kristel quyidagicha ta'riflaydi: "Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. U ijtimoiy guruhlarining lingvistik o'ziga xosligini, tilga bo'lgan ijtimoiy munosabatni, tilning standart va nostandart shakllarini, milliy tildan foydalanish qonuniyatlari va ehtiyojlarini, tilning ijtimoiy turlari va darajalarini, ikki tilli va ko'p tillilikning ijtimoiy asoslarini o'rganadi". Yana bir manbada esa shunday izohlanadi: "Sotsiolingvistika empirik fandir, chunki u kundalik hayotda ko'rish mumkin bo'lgan faktlarga asoslanadi. Alomatlarini to'plash va shakllantirishda bu nazariy fandir deb ham aytiladi. Sotsiolingvistika insonning turli vaziyatlarda til qoidalaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatini tushuntirishga harakat qiladi." Rus manbalaridan birida "sotsiolingvistika inson suhbatlashayotgan vaqtda tilning vazifalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Bir qator ijtimoiy guruhlarda turmush o'rtoqning ismini qo'llamaslik, Yaponiyada suhbatdoshlar suhbat vaqtida bir-birining ijtimoiy sinfini qo'llash shartligi, rus va ingliz suhbatida bunday holatning uchramasligi sotsiolingvistika sohasiga kiradi." Boshqa rus olimlari sotsiolingvistika insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, ta'lim olish darajasi va xarakteri, madaniyat darajasidan kelib chiqib, so'zlovchi til belgilaridan qay tarzda foydalanishiga – bir xillilikmi yoki har xillilikmi – urg'u beradi, - deb ta'kidlagandi. Xuddi shu fikrni zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik tadqiqotchi Uilyam Labov ham ilgari suradi. U. Labov sotsiolingvistikani "tilni o'zining ijtimoiy kontekstida" o'rganadigan fan sifatida belgilaydi. Yevropalik olim Ispaniyaning Salamanka universiteti o'qituvchisi Gonsalo De Korreas tilning ijtimoiy turlarini aniq ajratib ko'rsatgan: "shuni ta'kidlash kerakki, tilda viloyatlarda mavjud bo'lgan dialektlardan tashqari, ushbu viloyatlarning yoshi, mavqei va mol-mulki bilan bog'liq ba'zi turlar mavjud; qishloq aholisi, oddiy odamlar, shahar aholisi, olijanob janoblar va saroy ahli, olim va tarixchi, oqsoqol, voiz, ayollar, erkaklar va hatto kichik bolalarning o'z tillari bordir".

Qo'llanilgan metodlar

Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishga imkoniyat beradi. O'quvchilarda chet tili orqali mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yiladigan muhim talablardan biri ham ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo'llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Uzluksiz ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida ham o'qituvchi dars jarayonida noan'anaviy darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, lekin xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda xorijiy til o'qituvchisi o'quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o'rganib darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogik texnologiyalarni darsda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor berishi lozimdir:

- o'quvchilar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalarni hosil qilish;

- yangi mavzuga oid qoida, atamalar mohiyatini ochib berish;
- yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan izchillikda yetkazish;
- o'quvchilarning fikrlash darajasini rivojlantirib borish;
- ta'limiy o'yinlarning izchilligi, xilma-xilligi va qiziqarli bo'lishiga erishish;
- shu mashg'ulotning o'zida yangi bilim asosida shakllangan ko'nikmalarini tekshirib borish;

- o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- dars jarayonida o'quvchilar ishtirokini kuchaytirib borishdir.

Tilni o'rgatishda o'qituvchi innovasiya - pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish, ta'lim tizimida eng ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida shakllanadi.

"Sotsiolingvistika" fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari o'rganuvchilarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Klaster", "3x4", "Venn diagrammasi", "Rezyume", "Baliq skeleti", kabi metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishi bilan o'tkaziladi.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi metod va yo'llarini hayotga tadbiq etishmoqda. Bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjuddir. Bundan tashqari, u o'qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o'z navbatida til o'rganib o'tgan o'quvchini zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga ko'mak beradi. Texnologiya asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallamoqda. Bugungi kunda televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini o'rgatishga ko'maklashuvchi yangi dastur va ko'rsatuvlar muntazam ravishda uzatilib berilmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish uchun O'zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi. Misol uchun, multimediya asosida chet tili o'rgatilayotgan o'quvchida to'rt ko'nikmani rivojlantirish va shakllantiradi, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushinishga harakat qiladi. Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar komputer, radio, CD, DVD qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini yaratadi. Ingliz tili darslari davomi ham eshinishi mumkin; - chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlari eshinish va tomosha etish mumkin; - ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va

cassetlardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi . Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Ingliz tili darslari davomida bazi o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga sabab bo'ladi. Aynan shu sababli yani o'rganuvchining ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish o'rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada taminlaydi. Zero, o'rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari albatta yaxshi samara beradi. Aksincha, biz o'qituvchilar ushbu talablar asosida o'quv materiallarini tanlamasak, o'quvchilariga murakkab so'zlardan iborat bo'lgan video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki multimedia, komputerlar orqali namoyish etilsa, o'rta va yuqori sinf yoki guruh o'rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat o'quv materiallarini namoyish etganimizda o'rganuvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'na boshlaydi va darslarni o'zlashtirmay qo'yishadi. Bu esa o'z navbatida baholarning pasayib ketishi, o'qituvchining o'quvchilar oldida o'z hurmatini yoqotib qo'yishga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ma'lumki, bugungi kunda ilm-fan, texnika, axborot tizimi shiddatli rivojlanmoqda. O'qish va o'qitishda kundalik faoliyatga qatnashish uchun har tomonlama mukammal bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishni davrning o'zi talab etmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori qabul qilindi. 2012 yildan o'quvchilarga xorijiy tillar o'qitish muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda xorijiy til o'qituvchilarining o'zlari ham 2013 yil o'quv yilidan boshlab haftaning juma kunlari - «Xorijiy til o'qitish metodikasi kuni»da tajribali trenerlar yordamida qo'shimcha kurslarda ta'lim berilmoqdalar. Demak, o'qituvchilarda xorijiy tillarni zamonaviy talablar asosida o'qitish uchun sotsiologiyistik kompetensiyalarni shakllanmoqda.

Ilmiy yangiligi

Sotsiolingvistik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishda har bir pedagog tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko'rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Yosh pedagog ta'lim dargohida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko'rsatish talab etilmoqda. Innovatsion jarayonlarni o'rganish maqsadida qo'llaniladigan tashxislash metodlari quyidagilardan iborat ekanligini bo'lajak o'qituvchilar ongiga aniq yetkazish lozimdir.

- bo'lajak o'qituvchilarning sotsiolingvistik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni tizimli tarzda o'rganish, bunda o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash;

- ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalarni izlab topish va oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning sotsiolingvistik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi o'ziga xoslik va ularning turli-tuman ko'rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o'tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma'ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish singari ish turlaridan keng foydalanish kabilardir. Sotsiolingvistik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishga yo'naltirilgan amaliy ishlarni ham bir necha bosqichlarda o'tkazish tavsiya etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilardan dastlabki bosqichda anketa so'rovlari, anketa savollariga olingan javoblarni ekspertizadan o'tkazish, individual suhbatlar tashkil etish va anketa savollariga olingan javoblardagi ma'lumotlarni tasdiqlash, tashxis natijalari asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishlari. Mazkur bosqichda birinchi bosqich natijalari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiypedagogik malakasini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar rejalashtiriladi hamda ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatiladi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan ishlar yakunlanib, takroriy tashxislash o'tkaziladi. Mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchining oraliq hamda yakuniy natijalarni olishga yo'naltiriladi. Guruhdagi ingliz tilini o'rganuvchilar faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarning hosil qilgan kasbiy ko'nikma, malakalari va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish hamda kasbiy pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion g'oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, hamda, ingliz tilini sotsiolingvistika qoidalari asosida o'rganishga va o'rgatishga ko'nikma hosil qiladilar, shuningdek, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, sotsiolingvistika jamiyat va til munosabatlarida muhim o'rin tutadi. Fanning maqsadi til funksiyalarining bajarilishini, har xil qatlam doirasida ijtimoiy guruhning kelib chiqishi, yoshi, mavqei va ta'lim darajasiga qarab nutqda qanday variantlarni qo'llash va bularning barchasini boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Sotsiolingvistikaning ingliz tiliga nisbatan o'ziga xos yondashuvini va uning "sof" lingvistikadan farqini tushunish

uchun sotsiolingvistikaning manbalarini ko'rib chiqish, uning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari orasidagi mavqeyini belgilash, uning obyekti va asosiy tushunchalarini, u shug'ullanadigan masalalarni aniqlab olish lozim bo'ladi. Ingliz tilni o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkordir. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, „Til bilgan — el biladi.“

Adabiyotlar ro'yxati

1. PQ 1875 “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qaror. “ Xalq so'zi” gazetasi, 2-bet. 2012 yil,10-dekabr
2. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 9.
3. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
4. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman
5. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). Learning and Teaching Information Technology--Computer Skills in Context, East Lansing, Mi, Eric document ED465377, Retrieved June 7, 2007, from [http:// www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm](http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm).
6. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi /
7. М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый.
8. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/>